

“BADIY HUNARMANDCHILIK” VA “AMALIY-BEZAK” SAN’ATI DIALOGI O‘ZBEK YOG‘OCH O‘YMAKORLIGI MISOLIDA



Sa’dullayeva Zamira Ravshan qizi
san’attshunoslik fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD),
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti dotsenti
z.sadullaeva@kiut.uz
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19381701>

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek yog‘och o‘ymakorligi “Badiiy hunarmandchilik” va “Amaliy-bezak” san’ati dialogi negizida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot markazida – XX asr o‘zbek yog‘och o‘ymakorligi. O‘zbek yog‘och o‘ymakorligi maktablari, ustalar ijodi va buyumlarni ishlash texnikalari o‘rganiladi va tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: muzey, san’at, xalq hunarmandchiligi, kolleksiya, ijodkorlik, an’ana, noan’anaviy, pargoriy o‘yima, axta, etnografik ekspeditsiya, lavh.

Abstract. This article explores the evolution of Uzbek woodcarving based on the conceptual dialogue between traditional “Artistic Craftsmanship” and “Decorative-Applied art”. Centered on the 20th-century period, the study identifies and analyzes regional schools of woodcarving, the artistic legacies of prominent masters, and the distinctive manufacturing techniques utilized in the craft.

Key words: museum, art, folk crafts, collection, creativity, tradition, non-traditional, Pargori carving, akhta, ethnographic expedition, lavh.

Аннотация. В статье узбекская резьба по дереву рассматривается в контексте диалога «художественного ремесла» и «декоративно-прикладного» искусства. В центре исследования — узбекское искусство резьбы по дереву XX века. Изучаются и анализируются школы узбекской резьбы по дереву, творчество мастеров, а также техники изготовления изделий.

Ключевые слова: музей, искусство, народные промыслы, коллекция, творчество, традиция, нетрадиционный, резьба по дереву “паргори”, акхта, этнографическая экспедиция, лавх.

Yog‘och o‘ymakorligi san’ati O‘rta Osiyo badiiy merosining bir qismi bo‘lib, qadim zamonlarga borib taqaladi.

An’anaviy me’morchilik va O‘zbekiston xalqlarining turmushida azaldan yog‘och o‘ymakorligi o‘ta mashhur edi. Me’morchilikda u ustun, karniz, eshik, shift va panjaralar kabi muhim qism hamda konstruksiyalarda qo‘llanilgan. Kundalik hayotda o‘yilgan yog‘ochni ishlatish o‘z ichiga mebeldan mayda uy jihozlarigacha bo‘lgan buyumlar doirasini olardi. Xontaxta, kursi, sandiq, shkafcha, quticha, keng yog‘och karavot va beshiklar o‘ymakorlik bilan bezalgan. Lavh, qalam qutisi, kitob bog‘lamalari, siyoh jihozlari, shaxmat, taroq, musiqiy asbob, matoga naqsh berish tamg‘alari, arava, egar, palankinlar ham o‘ymakorlik yo‘li bilan bezalgan.

Mahalliy markazlarga etnografik ekspeditsiya, maxsus atamalarni yig‘ish chog‘ida

izlanuvchilar bu hunarning rivojlanishi va oyoqqa turishi manzarasini to'liq tasavvur etishga harakat qilgan. Ko'pgina izlanishlarni yodgorliklarni aniqshlash, badiiy yog'och o'ymakorligining obrazli tabiatini, uning tarkibiy, plastik va texnologik usullarining o'sishini o'rganishda, badiiy san'atning bu turini o'zlashtirish metodikasini yaratish, uning yetakchi ustalari ijodi – mahalliy maktab vakillari hamda ularning asarlarini yoritishda ko'zga tashlanuvchi professionallikning yuqori darajasi ajratib turadi.

XIX asr oxiri – XX asr boshi ro'zg'or buyumlarining keng tanlovi bilan mashhur. Bu juvoz, zarang tovoq, korson, lagan, duk, govron, qamchi dasti, tumor, tasbeh va boshqa buyumlardir. Alohida e'tibor bilan masjid minbarlari va sag'analar bezatilgan.

Turkistonning Rossiya tomonidan bosib olinishi va natijada o'lkaga kelayotgan rus aholining o'sishi o'zgarishlar yog'och o'ymakorligi sohasiga ham ta'sir qilganligi sababi bo'ldi. Ustalar o'zi uchun g'ayrioddiy bo'lmish tovarga qiziquvchi shahar aholisi didiga moslasha boshladi. Bu o'ymakorlik bilan bezalgan buyumlar ro'yxatini ancha kengaytirdi. Mayda o'ymakorlik nooddiy mahsulotlarda – dori qutisi, qush kataklari, quticha, jamadon, portsigarlarda qo'llanila boshladi [1].

Ayniqsa mashhur "Sharq uslubi"ning asosiy belgilariga ega ko'p qirrali baland stollar edi. Ular arabesk o'ymlar bilan bezatilib, shinavandalar orasida qadrlangan; yevropacha interyerlarga mo'ljallangandi. XX asr boshida ularga talab Turkistondan ancha yiroqlarda ham, hatto Amerikagacha bo'lgan hududlarda ham bor edi. An'anaviy naqsh bilan yaxshilab bezalgan yevropacha mebel (bufet, komod, yozuv stoli, pardoz stolchalari)ni yasash yangilik bo'ldi. Material sifatida mahalliy daraxt turlari ishlatilgan: chinor, qayrag'och, yong'oq, archa, tut, o'rik, terak, tol, nok, behi va jiyda. Yozuv va naqshlarning xilma-xilligi bo'lgan. Turli kundalik buyumlar, mebel va musiqiy asboblarga bezak berishda ustalar o'yma naqsh, rasm va mozaika qo'llagan.

XIX asrning ikkinchi yarmida ikki xil o'ymakorlik uslubi tarqalgan edi. Yapaloq-releflil naqsh fonni chuqurlashtirish va ishlov berish yo'li bilan yaratiladigan zaminli o'yma hamda uch qirrali, qavssimon, tirnoqsimon o'yilgan naqshli zaminsiz o'yma. Bu o'yma turlari o'zining badiiy ta'sirchanligi bilan farqlangan. Fonli o'yma professional ustalar tomonidan ulkan texnik yetuklik bilan bajarilgan va qattiq yog'ochlardan tayyorlangan o'zgacha mahsulotlarni bezagan: quticha, salla uchun quticha, lavh, kitob bog'lamalari va baland ko'p qirrali xontaxtalar. Kundalik buyumlarni bezashda oddiy zaminsiz o'yma ko'proq tarqalgandi. U kichkina shkaflar, jihoz va masalliqalar qo'yiladigan buyum, beshik, asbob, yoy, egar va o'qlovlarga tushirilgan. O'yilgan naqsh, uchburchak, chiziqalar qisman yorug'lik va silliq daraxt yuzasini jonlantirgan. Tasvirni tushirish uchun axtalar ishlatilgan yoki kompozitsiyaning geometrik jadvali ("pargor")ni belgilab, naqshni sirkul va chizg'ich yordamida chizishgan. Biroq o'ymakorlik texnikasi bir xil bo'lgan. Naqsh siluetli ko'ringan. Nuqtali chakich bilan ishlangan fon g'adir-budirlikka ega bo'lib, naqshning yaltiragan yuzasidan ajralib, ko'zga yalt etib tashlanib turgan.

XIX asr so'ngi – XX asr boshida yog'och o'ymakorligi hunarining asosiy markazlari Xiva, Urganch, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Farg'ona, Shahrisabz, Surxondaryo viloyatining tog'li hududlari - Darband, Sayrob, Qo'ng'iro't edi.

Xiva – O'rta Osiyo yog'och o'ymakorligining eng qadimiy markazlaridan biridir. Xivalik o'ymakor ustalarning belgisi turli xil ishlarni bajara olish edi. Ular bir vaqtning o'zida duradgor, quruvchi, o'ymachi, panjarasoz, qolipchi va musiqa asboblarni yasaydigan ustalar bo'lishgan. Material tanlashda Xiva ustalari yog'ochning mahalliy turlari – qarag'ay va terakni afzal ko'rishgan. Boylarning uyi uchun o'rik va tut yog'ochidan foydalanishgan.

Xiva o'ymakorlari maktabining yorqin vakillari – Polvonovlar sulolasidir. Ularning

qo'llari bilan XIX asr – XX asr boshida Xivadagi ko'plab o'yilgan ustun va eshiklar yasalgan. P.Abdusattorov va uning o'g'li Ota Polvonovning ishlari chuqur bo'lmagan relefli bir planli o'yima bilan ajralib turadi.

Xiva maktabi yog'och o'ymakorligining eng yirik markazlaridan bo'lishda davom etadi. A.Polvonov, S.Boybekov ustalarining ijodi o'z cho'qqisiga ko'tariladi. Ular tomonidan yasalgan o'yilgan eshik va ustunlar xalq o'ymakorligining Xiva an'alariga uyg'undur. Ustalar tomonidan Xivaga xos naqsh "aylanma islmiy" – gul va yaproq motivli spiral ko'rinishidagi butoq faol qo'llaniladi. O'yilgan bezakda bu ustalar nafaqat relefga berilgan mohir ishlov, balki chuqurlashgan fonning baliq tangachasi ko'rinishidagi o'yima bilan ishlanishini ham ko'rsatadi. Bu esa relef va fon qarama-qarshiligini yengib o'tishga imkon beradi. Umuman olganda, A.Polvonov, S.Boybekov ishlari jarangliligi, harakatchan ritm, naqsh bezagining o'zgacha Xiva motivlari bilan ajralib turadi.

XIX asr so'ngi – XX boshidagi yana bir mashhur yog'och o'ymakorligi markazi Toshkent bo'lgan. U yerda inshootlarni badiiy bezashdan tashqari ustalar ijodida maishiy o'ymakorlik ham katta o'rin egallagandi. Bu aholining katta qismi rus bo'lmish Toshkentning poytaxt maqomi bilan ko'p jihatdan bog'liq edi. Ko'p qirrali xontaxta, quticha va boshqa buyumlar pargor yordamida nafis mayda o'yima bilan qoplangandi. Shuning uchun uslubning o'zi ham "pargoriy o'yima" nomini olgan. Bu davrdagi Toshkentning o'yilgan eshiklari yapaloq-relefli ko'rinishda, ko'pincha o'simlik naqshiga ega ikki-uch planli o'yimasi bilan ajralib turadi. Toshkentlik mashhur yog'och o'ymakorligi ustalari T.Ayubxo'jayev, S.Xo'jayev, A.Tursunboyev va N.Ziyovqoriyev bo'lib, ular o'z ijodida an'anaviy badiiy yo'nalishlarga ergashgan. Aytaylik, o'rta qism ajratiladigan S.Xo'jayevning naqsh kompozitsiyalari, pargori texnikasi va o'ziga xos o'yimada Toshkent maktabi tamoyillariga ergashish kuzatiladi.

Bu davr Toshkent o'ymakorligini S.Xo'jayev (so'nggi ishlari), M.Qosimov, H.Qosimov, E.Nuraliyev, N.Ibrohimov va SH.Ag'zamov kabi ustalar o'z ijodi bilan tamsil etiladi. O'ymakorlikda odatda qoraqayin, yong'oq va panjara uchun terak qo'llanilgan.

M.Qosimov tomonidan Toshkentdagi Alisher Navoiy nomidagi Davlat akademik Katta teatri uchun yasalgan eshiklar mahalliy maktabning eng yaxshi an'analari bo'yicha qilingan. Ularning kompozitsiyalarini ijroning bitta usuli va rom chorcho'pining naqshi birlashtiradi. Usta o'ymakorlik texnikasini relefga qo'shimcha ishlov berish bilan uyg'unlashtirgan.

Maishiy o'ymakorlikda M.Qosimov, sirkulni afzal ko'rgan o'z ustozlari S.Xo'jayevdan farqli o'laroq, faqat axta ishlatgan. Ko'pincha u o'ymakorlik uchun kerak asboblarni o'zi ishlab chiqargan va o'yimalarning original shakllarini yaratgan. Islmiy an'anaviy o'simlik naqsh motiviga ergashgan holda usta noan'anaviy tasviriy motivlar – gerb, o'roq, bolg'a, besh qirrali yuzlduzlar, uzum boshlari va paxta g'ozalarini ham kiritgan. M.Qosimovning ijodiy uslubi o'zgachaligi pargari o'yimasi va islmiy motivning ornamental asosi uyg'unligi, bundan kelib chiqadigan silliq yuza va nuqtali o'yima bilan to'liq qoplangan g'adir-budirroq fon kontrastidir. Uning munosib davomchilari o'quvchilari O.Fayzullayev va N.Ibrohimov bo'lgan.

Toshkentdagi so'nggi o'n yillikning yog'och o'ymakorligi badiiy prinsiplariga XX asrda S.Xo'jayev, M.Qosimov singari ustalar tomonidan asos solingandi. Bu tamoyillar 1950-1960-yillarda o'sha kezlari yosh bo'lgan usta A.Fayzullayev tomonidan o'zlashtirilgandi. Hozirgi kunda usta o'z ko'nikmalari va tajribasini yangi avlodlarga berib, Toshkent yog'och o'ymakorligining badiiy xususiyatlarini o'rgatib kelmoqda. Uning shogirdlari orasida G'.Yo'ldoshev, A.Azlarov va S.Rahmatullayev kabi iste'dodli o'ymakorlar bor.

Toshkent yog'och o'ymakorligining boshqa bir vakili lavh va laganlarni yasovchi usta A.Azlarovdir [2]. U o'z ijodida Toshkent maktabining badiiy tamoyillarini jonlantiradi. Usta

o'yilgan naqshli va chuqurlashgan fonli o'ymada ishlaydi.

Toshkent o'ymakorlik maktabi doim ustadan ulkan texnik mahorat va professional yetuklikni talab etadigan yapaloq-releflni naqshga ega fonli o'ymaning keng tarqalishi bilan ajralib kelmoqda. Toshkent o'ymakorlari har doim shu bilan ko'zga tashlanganki, ornamental naqshlarni ikki-uch qavat qilib o'yishgan. Fon chuqurligi bilan ajralib turgan, islmiy, geometrik, "gulli girix" motivlari va hatto shakli o'zgargan ramziy motivlar keng tarqalgandi. O'ymakorlik uchun asosan yong'oq, chinor va jo'ka qo'llanilgan. Toshkent yog'och o'ymakorligining yana bir xususiyati relief yuzasiga qo'shimcha rang berish, shuningdek lok bilan qoplash bo'lgandi.

Ortiq Fayzullayev o'ymakorlik uchun an'anaviyga aylanmish daraxt turlarini ishlatadi: jo'ka, chinor va yong'oq. Shuningdek u tomonidan yog'och o'ymakorligi yo'li bilan yasaladigan buyumlar ham an'anaviy: quticha, lagancha, lavh, ko'p qirrali xontaxta, qalamdon va panjaralar [3]. Usta tasvirni tushirish uchun axtani qo'llaydi, ba'zida buni "pargari" (sirkul va chizg'ich qo'llaniladigan) texnikasi yordamida naqsh chizish bilan uyg'unlashtirib. Aytgancha, aynan O.Fayzullayevning ustozlari Maqsud Qosimov ilk bor o'ymaning ushbu ikki turini birlashtirish uslubini kiritgan. Bu uslubni keyin shogirdi o'zlashtirdi. So'ngra usta keskich yordamida kontur bo'yicha tasvirni o'yadi. Natijada naqsh siluetli ko'rinib, uning silliq yuzasi yog'och xususiyatidan darak beradi. O.Fayzullayev o'z ishlarida ko'p hollarda relief yuzasiga ton beradi, bu esa fon bilan birgalikda nafaqat material xususiyati, balki o'zgacha rang ifodaviyligini ham ochib beradi.

O.Fayzullayev ishlaridagi ornamental qarorlarni o'yilgan alohida buyumga qarab, o'simlik va geometrik motivlarining uyg'unligi belgilaydi. Masalan, lagandagi (1993-yil) qo'llanilish xususiyati, buyum shakllari naqsh tuzilishidagi simmetriklikni belgilasa, "islmiy" yog'och o'ymakorligi texnikasida yaratilgan 8 qirrali stolda (1991-yil) juda harakatchan, impulsiv va shu bilan birga bosiq kompozitsiyani yuzaga keltiruvchi o'simlik butoqlari, naqsh rozetkalarining hashamati va murakkabligi yaqqol ko'zga tashlanib turibdi. Noyob o'yilgan mahsulotlardan biri lavhdir. Bu kitob tagiga qo'yiladigan buyum bo'lib, hozirgi davrdagi diniy o'quv yurtlarida yana o'zining asl qo'llanilishini topmoqda.

Marg'ilonlik o'ymakorlar U.Ahmedov va Y.Mag'rufjonov ham mashhur edi.

XIX asr oxiri – XX asr boshidagi Qo'qon o'ymakorlaridan H.Najmiddinov ismi bizgacha yetib kelgan. Qo'qon, Samarqand, Buxoro, Toshkent va boshqa shaharlarda ishlagan bo'lib, u turli maktablarning badiiy o'ymakorligi bilan yaxshi tanish edi va pargori mayda naqshli, past releflni o'ymaning 30 dan ortiq ornamental shaklini egallaganligi bilan mashhur bo'lgan. Bu o'yma bilan u mebel, yong'oq va chinordan yasalgan buyumlarni bezagandi.

O'sha davrdagi Qo'qon yog'och o'ymakorligining yorqin vakili Q.Haydarovdir, usto Haydarning o'g'li. Q.Haydarov ishlari an'anaviy yog'och o'ymakorligining badiiy saviyasi yuksak namunalaridir. Ular orasida eshik, panno, friz, shuningdek, xilma-xil dekorativ stol, o'rindiqlik, lavh, qalamdon, javon, tumbochka va kursilar bor edi. Ustaning sevgan materiali yong'oq edi [4]. Q.Haydarovning o'ymakorlik texnikasi 1920-1950-yillardagi pargori uslubidan o'simlik butog'ining silliq ritmlariga tayangan bu uslubning boshqa turi bilan uyg'unlashishigacha bo'lgan evolyutsiyaga uchragan. Naqsh tuzilishlarida usta yirik geometrik motivni maydaroq o'simlik motivi bilan sig'ishtirgan va epigrafikani ham qo'llagandi. U Sport saroyi foyesi, O'zbekiston tarixi davlat muzeyi eshiklarini badiiy bezashda qatnashgan. Bu davrda boshqa qo'qonlik ustalar, Q.Haydarovning shogirdlari - G.Ohunov, R.G'aniyev, O.Tohirov, U.Toshmatov, I.Izaqov va Y.Umarov ham ijodini boshlagandi. O'shanda marg'ilonlik o'ymakorlardan A.Umrzoqov va Y.Mag'rufjonov faol ishlagan.

Taniqli Samarqand ustalaridan Samarqand yaqinidagi Shurbi qishlog'idan usta Nazrulla va o'g'li Nurulla edi.

Turli maktab vakillari orasida doim ijodiy muloqot bo'lgan. Manbalardan ma'lumki, Toshkentda Farg'ona vodiysidan kelgan usta-o'ymakorlar ishlagan. Taniqli marg'ilonlik o'ymakor Usta Maqsum Hoji (XIX asr oxirida olamdan o'tgan) Shayxontohur qabristonining chinorli darvozasini yasadi. Azimjon Bobojonovga o'xshagan toshkentlik ustalar esa 1903-1904-yillarda Qo'qon va Andijonda ishlagan.

1920-yildan 1980-yillargacha o'yilgan yog'och o'ymakorligi sohasining amaliy ahamiyati torayishiga qaramasdan o'ymakorlik san'atida mahalliy maktablar an'analari rivojlanishda davom etadi va naqsh tizimida yangiliklar yuzaga keladi. Xiva, Samarqand, Toshkent, Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Farg'ona va Sahrisabz hunarmandchilik markazlari saqlanib keladi.

U paytdagi Samarqand yog'och o'ymakorligi maktabi boshqa maktablardan o'ymaning nozikroqligi, geometrik, o'simlik va gul motivlarining o'ziga xos uyg'unligi hamda noodiaty texnika bilan farqlanardi. Material bobida chinor, eman, jo'ka va terak afzal ko'rilgan. Samarqand maktabining tipik vakillari usta Asatulla, M.Jumaboy, A.Jalilov, usta Nasrulla va N.Nazrullayevdir.

N.Nazrullayev o'yilgan devorlarni yasash bo'yicha usta sifatida shuhrat qozongan. U eshiklar odatda foni puansonli panjara bilan qoplangan yapaloq-releflil o'yma texnikasi yordamida yaratilgandi. Usta an'anaviy o'simlik ornamentikasini ko'p hollarda tasviriy motivlar va zamonaviy epigrafikani ishlatib qo'llagan.

Buxoro o'ymakorlaridan 1940-1950-yillarda mahalliy badiiy an'analarga ergashgan G'afurovlar sulolasi mashhur edi.

1990-yillarda yog'och o'ymakorligi an'anaviy va eng tarqalgan xalq dekorativ-amaliy san'atining turlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunda markazlari Qo'qon, Xiva, Samarqand, Toshkent, shuningdek Andijon, Namangan va Jizzaxda joylashgan bir qator an'anaviy yog'och o'ymakorligi maktablarini ajratsa bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Аведова Н.А. Резьба по дереву в Узбекистане (творчество народных мастеров XIX – XX вв.). Диссертация на соискание ученой степени кандидата искусствоведения. – Ташкент, 1970. – Библиотека НИИ искусствоведения Академии художеств Узбекистана. – ИА (А19) – С.34.
2. Хайитбобоева Х.П. Мустақиллик даври Ўзбекистон амалий санъатида анъана ва инновация. Сан.фан.фал.док. дисс. автореферати. – Тошкент, 2022. – 18 б.
3. Акилова К.Б. Народное декоративно–прикладное искусство Узбекистана: XX век. – Ташкент., 2005. – С.182.
4. Аведова Н.А. Резьба по дереву в Узбекистане (творчество народных мастеров XIX – XX вв.). Диссертация на соискание ученой степени кандидата искусствоведения. – Ташкент, 1970. – Библиотека НИИ искусствоведения Академии художеств Узбекистана. – ИА (А19). – С.83.
5. Фатхуллаев Р.С. XIX асрнинг иккинчи ярми - XX асрнинг 80-йилларида Ўзбекистон амалий-безак санъатидаги тасвирий мавзулар. Санъатшунослик фанлари номзоди илмий даражасига талабгор диссертация. – Т., 2000. ЎзФА Санъатшунослик институти кутубхонаси.